



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Davranov Tolmas Toshtemirovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
O'zbekiston-Fillandiya pedagogika universiteti magistranti,  
Samarqand

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY TARBIYANING  
RIVOJLANISHI

**Abstract:** Mustaqil O'zbekistonning jismoniy madaniyat va sportning yanada rivojlantirishga asos bo'lувчи eng muhim tadbirlar ko'rilmoxda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni (1992 yil 14 yanvar) barcha aholining sogligini mustahkamlash uning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga shart-sharoitlar yaratib berishni kafillikka oladi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy madaniyat, terma jamoalari, sport to'g'risida"gi qonun, Olimpiya qumitasi.

XX asr boshlarida Laun-tennis, kryuket, gimnastika, yengil atletika, qilichbozlik anchagini tarqalib Toshkentda sport jamiyatlari tashkil etildi. Masalan: 1904 yil "Toshkent gimnastika va jismoniy havaskorlari jamiyati", 1906 yilda esa "SOKOL" yengil atletika guruhি tashkil etildi.

1913 yilda tashkil etilgan "Toshkent sport xavaskorlar jamiyati" Turkistonda eng yirik sport jamiyati edi. 1908 yildan boshlab, Turkistonda professional polvonlarning championatlari o'tkazila boshladi.

Respublika sport qumitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 1991 yilda 36 ta sportchi xalqaro sport ustasi bo'ldi, 350 kishi esa sport ustasi unvoniga sazovor bo'ldi.

1992 yildagi xalqaro Olimpiada o'yinlarida qatnashish uchun 22 nafar sportchi saralab olindi.

Ma'lumki 1992 yilning yozida Ispaniyada (Barselona) yozgi XXV xalqaro Olimpiada o'yinlarida O'zbekistonning 17 nafar sportchisi sobiq SSSR tarkibida so'nggi bor qatnashdilar. Ular orasida R.Galiyeva, O. CHusovtina (gimnastika) M. SHmonina (engil atletika) oltin medal, S.Oprsov (ogir atletika), A.Asrabayev (uk otish) kumush medal va V.Zaxarevich (qilichbozlik) bronza medali sovrindorlari bulishdi.

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'z istiqbol va istiqloli uchun qat'iy harakat qilmoqda. Bu taraqqiyotlar ichida jismoniy madaniyat va sport ishlari ham aloxida o'rinn tutadi. 1992 yil 21 yanvarda O'zbekiston milliy Olimpiya qo'mitasining ta'sis anjumani bo'lib, u rasmiy tashkilot deb e'lon qilishdi. 1992 yil 9 martda esa O'zbekiston milliy Olimpiya qo'mitasining tarkibi 133 kishidan iborat bo'lib, uni ijroiya qo'mitasi boshqaradi. Uning tarkibida 23 kishi faoliyat ko'rsatadi. Milliy Olimpiya qo'mitasining Prezidenti qilib O.N.Nazirov, uning yordamchisi qilib S.O. Ruziyev, I.Barabanov, bosh kotib kilib A.K. Hamrakulov saylandilar.

Shuni e'tirof etish kerakki O'zbekistonning mavqeい tobora oshib bormoqda. O'tgan bir yil davomida 20 dan ortiq sport turlari bo'yicha xalqaro sport uyushmalariga a'zo bo'lib kirdi. 1994 yilda O'zbekiston terma jamoalari Rossiya o'yinlarida qatnashishga taklif etildi. Hozirgi kunda respublikaning kurash, Futbol, voleyboll va boshqa bir qator milliy terma jamoalari bu o'yinlar katta ko'tarinkilik ruhida tayyoragarlik ko'rishmokda. Bu esa O'zbekistonning mustaqillikka erishish sharofati va ishonchli istiqbolining dalilidir.

Bunday imkoniyatlar respublikada milliy kurashlar kuch sinashish, ot o'yinlari va turli milliy o'yinlarni chuqur o'rganish, ularni qishlok joylarida keng qo'llash, rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z urnida o'qtirish lozimki, 1992-93 aprel-may oylarida o'tkazilgan milliy xalq o'yinlari sayli va bayramlari butun respublika axolisini diqqat-e'tiborida bo'ldi. Oynai jaxonda namoyish qilingan qizlarning "To'qqiz tosh" (lapta) yigitlarning otda poyga, ko'pkari (uloq), tosh ko'tarish, arqon tortish va boshqa ko'pgina o'yinlarni xalq sevib tomosha qildi. Bu bilan milliy o'yinlarimizning jozibali tomonlari namoyish qilingan bo'lsa, xalqimiz qadr-qimmatining oshishi kuzda tutildi. Bunday o'yinlarning maktab O'quvchilarining jismoniy tarbiya darslari, sog'lomlashtirish tadbirlari va sport musobaqalarining tarkibiy qismiga ustalik bilan singdirish lozim. Chunki bu milliy xalq o'yinlari yoshlarda kuch-quvvat, epchillik, chidamlilikni tarbiyalash bilan birga, ularda do'stlik, jasurlik kabi insoniy sifatlar hamda jismoniy kamolotni ham mustahkamlaydi. J.T.Toshpulatov, K.A. Alimov (Termiz), X.N. Rajabov, X.B.Botirov (Buxoro), M.F.Isxokov (Kukon), T.Xoldorov, B.Buriboyev, X.A. Meliyev (Jizzax) qabilarni alohida ko'rsatish joizdir.

Shuningdek Samarkand, Termiz, Oxangaron, Kosonsoy pedagogika bilim yurtlarining rezervlari bilim yurtini o'rta ma'lumoti mutaxassis xodimlarni tayyorlashdagi xizmatlarini eslatish o'rnlidir.

Ma'lumki viloyatlardagi sport qo'mitalari sport jamiyatları, xalq ta'limi bo'limlari va turli xil tashkilotlar qoshidagi olimpiya rezervlari, oliy sport mahorati va oddiy sport maktablari faoliyat ko'rsatadi. Ularning soni 200 dan ortiq bo'lib, 1,5 mingdan ortiq mahoratlari trenerlar xizmat qiladi.

Respublika sportining ravnaqi va erishilgan natijalar ko'p jamiyatdan sport inshootlari bevosita chambarchas boglangandir. Respublikada 185 ta o'yingoh, 125 ta suv havzasi. 4414 ta sport zali bor.

O'zbekistondagi eng ommaviy sport turi voleybol bo'lib, u bilan 263433 kishi shug'ullanadi. Ularning ixtiyorida 14193 ta o'rin maydonlari mavjud. Futbol bilan shugullanuvchilar soni esa 266767 kishi bo'lib, ularga 5664 o'yingoh xizmat qiladi.

Ma'lumki, uzoq yillar davomida Toshkent, Samarkand, Navoiy va boshqa shaharlarda sobiq Ittifoq miqyosidagi yoki jahon birinchiliklari turnirlari ham o'tkazilib kelindi. Shu tufayli respublikada yirik sport inshootlari qurilib, ularda ommaviy musobakalar, Ommaviy sport turlari o'tkazilib turiladi.

Bularga Toshkentdagi markaziy "Paxtakor", "Mexnat rezervlari" spor kombinatlari, "Dinamo", "Start", "Tuqimachi", "Qibray" markazlari va "Alpomish" (sobiq "YUbileyniy") sun'iy yaxmalak sport saroyi Mitrofanov nomidagi suv habzasi. Samarqanddagi eshkak eshish kanali, Navoiy shaharidagi suv sport va boshqalar maqtovga sazovordir.

O'zbekistondagi jismoniy madaniyat va sport harakati tabora rivojlanmoqda. Bu faoliyatlarni tashkil etish va boshqarishda Respublika Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi maxsus boshqaruvi organi sifatida amal qilmoqda. Uning barcha ish turlarida Respublikadagi "Dinamo", "Mexnat rezervlari" kasaba uyushmalarining "O'zbekiston" sport jamiyatlari, "Vatanparvar" (DASAAF), sayohat markaziy kengashi turli sport uyushmalari katta ko'mak bermoqda. Bu davlat va jamoa tashkilotlarining viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi tarmoqlari o'z hududlarida barcha sport ishlarini tashkil qilishga rahnamolik qiladilar.

## Asosiy adabiyotlar

1. Stolbov V.V. Istorya fizicheskoy kultury. M. Prsvesheniye 1989 g.
2. Ismoilov R. SHolomitskiy. O'zbekistonda FK tarixi. T. 1969 y.
3. Abdumalikov R., Eshnazarov K. Ajdodlar jismoniy madaniyati tarixini organish masallari T. 1993 y.
4. Muminov I. Amir Temuring o'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli (yozma manbaalar ma'lumoti asosida) T. 1993 y.
5. Amir Temur vasiyati (risoli) T. 1991 y.
6. Ibn Sino Tib kunlari 1,2,3 tom. T. 1994 y.
7. "Boburnoma".
8. Abdumalikov R., A. Akromov O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixini urganish masalalari. T. 1994 y.
9. Vilkin N.R. Otkuda poshli Olimpiskiye dvijeniya M. 1970 g.
10. Talalayev YU.N. Sport faktor mira i drujby mejdu narodami.
11. Savin S. Sovremennoye Olimpiyskoye dvijeniye.